

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SULTONOV MUXIDDIN MAMATYUSUFOVICH

**AVTOSANOAT KORXONALARI EKSPORT FAOLIYATINI
BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH
(“UzAuto Motors” aksiyadorlik jamiyati misolida)**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Sultonov Muxiddin Mamatyusufovich

Avtosanoat korxonalari eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini
takomillashtirish.....3

Султонов Мухиддин Маматюсуфович

Совершенствование стратегии управления экспортной деятельностью
предприятий автопрома.....31

Sultonov Muxiddin Mamatyusufovich

Improvement of the export activity management strategy of the autoindustry
enterprises61

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....66

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SULTONOV MUXIDDIN MAMATYUSUFOVICH

**AVTOSANOAT KORXONALARI EKSPORT FAOLIYATINI
BOSHQARISH STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH
("UzAuto Motors" aksiyadorlik jamiyati misolida)**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2655 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim tarmog‘iga (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich,**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasulov Nodirbek Madraximovich,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon mashinasozlik instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “___” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining kutubxonasida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel.: (99871)239-28-72; faks (99871)239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmonova,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, i.f.d., professor

O.D. Djuraboyev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari
doktori, dotsent

R.X. Karlibayeva,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahon avtomobil sanoatining holatini alohida ta'kidlaydigan bir qator asosiy tendensiyalar va faktlar mavjud. Asosiy statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratilsa, sanoatdagi raqobatning global xarakterini jahondagi avtomobil ishlab chiqarishning asosiy qismini ta'minlab berayotgan eng katta 7 ta kompaniya misolida ko'rish mumkin. Shu bilan birga, ishlab chiqarish quvvati va sotiladigan mahsulotlarning haddan tashqari ko'pligi sohadagi foyda ko'rsatkichlarining talab darajasini pasaytiradi. Avtomobil ishlab chiqarish jarayonida eng muhim va resurs talab etadigan xarajatlar komponentlar uchun sarflanadigan xarajatlar hisoblanib, umumiy sotish va ishlab chiqarish xarajatlarining taxminan 40 foizini tashkil qiladi. Ushbu faktlar inobatga olinsa, bozorning asosiy ishtirokchilari butlovchi qismlarni yetkazib beruvchilar konsolidatsiyasiga intiladi, chunki avtomobil kompaniyalarining daromadlarini ko'tarishga intilish butlovchi qismlar xarajatlarini kamaytirish istagiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, mahsulot ishonchliligi va sifatiga ta'sir qilishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, mazkur sohada konsolidatsiya darajasi juda yuqori bo'lib, bozorning 70 foizi raqobat va ustunlik darajasini belgilaydigan atigi 7 ta kompaniya tomonidan nazorat qilinadi.

Hozirda jahon avtomobilsozlik sanoati bir qator muammolarga duch kelmoqda. Birinchidan, sanoatdagi ortiqcha ishlab chiqarish quvvati hamda sotiladigan mahsulotlarning ko'pligi raqobatning kuchayishi va talab darajasidagi daromadning pasayishiga olib kelmoqda. Ikkinchi muammo umumiy avtomobil sotish va ishlab chiqarish xarajatlarining ahamiyatli qismini tashkil etuvchi komponentlar uchun sarflanadigan xarajatlar narxining oshishi bilan bog'liq. Bu holat avtomobil kompaniyalari olayotgan foydaga ta'sir ko'rsatishi va komponentlar narxini kamaytirishga undashi mumkin, bu esa avtomobillar sifati va ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, bozorning asosiy ishtirokchilari bozorda o'z mavqeyini mustahkamlashga intilayotgani sababli sanoat komponent yetkazib beruvchilarni birlashtirish yoki konsolidatsiya muammosiga ham duch kelmoqda. Bu esa cheklangan miqdordagi yetkazib beruvchilarga qaramlikni keltirib chiqarishi va ta'minot zanjiridagi risklar oshishiga olib kelishi mumkin. Bu omillarning barchasi avtomobil kompaniyalaridan ushbu qiyinchiliklarni yengish hamda sanoatning barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun doimiy ravishda tahlillar yuritish va vaziyatga moslashishni talab etadi.

O'zbekiston avtomobil sanoati avtomobil mahsulotlarini eksport qilishda bir qator muammolarga duch kelmoqda. Avtomobil sanoatini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha katta sa'y-harakatlarga qaramay, xalqaro bozorlarning cheklanganligi va boshqa gigant ishlab chiqaruvchilar bilan kuchli raqobat jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ishlab chiqarilayotgan avtomobillar assortimentining cheklanganligi va mahsulotlar sifati muhim omil hisoblanadi. Tarixdan mahalliy avtosanoatning eskirgan modellar va talab darajasida

raqobatbardosh bo‘lmagan avtomobillar ishlab chiqarish bilan cheklanib qolganligi xorijiy xaridorlarning qiziqishini kamaytirgan. Eksport bo‘yicha statistik ma‘lumotlar ham sohada to‘siqlar borligiga ishora qiladi. 2022-yilda O‘zbekistonda yengil avtomobillar eksporti qariyb 41 ming donani tashkil etgan bo‘lib, bu boshqa avtomobil eksporti bilan shug‘ullanuvchi mamlakatlar ko‘rsatkichlariga nisbatan ancha past. Xalqaro bozorlarning cheklanganligi hamda xorijiy hamkorlar va xaridorlarni jalb qilishdagi qiyinchiliklar avtomobillar eksporti hajmiga ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun mahalliy avtomobil ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishi, bozorni innovatsion va sifatli avtotransport vositalari bilan ta‘minlashi hamda mahsulot eksportini yaxshilash uchun logistika infratuzilmasini mustahkamlashi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi avtomobil sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–4397-son qaroriga muvofiq, O‘zbekistonda avtomobil sanoatini rivojlantirish uchun 2019–2023-yillarga mo‘ljallangan ko‘rsatkichlar belgilandi va bu borada yengil avtomobillar, yuk avtomashinalari va avtobuslar ishlab chiqarish hajmini oshirish, mahalliyashtirish darajasini o‘rta hisobga yetkazish, eksport hajmini kengaytirish, zamonaviy bozor mexanizmlari va boshqaruv usullarini joriy qilish, yangi modellar yaratish hamda investorlarni jalb etish ko‘rsatkichlariga e‘tibor berilishi ko‘zda tutilgan. “O‘zavtosanoat” AJga esa bu vazifalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish quvvatini oshirish va modernizatsiya qilish, yangi loyihalar ishlab chiqish hamda ma‘muriy va texnik ko‘maklashish bo‘yicha mas‘ullik belgilab berilgan ¹.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-maydagi “General Motors O‘zbekiston” AJ ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga narxlar shakllanishini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3010-son, 2017-yil 1-iyundagi “2017–2021-yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3028-son, 2022-yil 19-dekabrda “Elektromobillar ishlab chiqarishni tashkil etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–443-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 16-yanvardagi “General Motors O‘zbekiston” yopiq aksiyadorlik jamiyatida “M300” modelidagi avtomobillarni seriyalab ishlab chiqarishni tashkil etish to‘g‘risida”gi 13-son, 2013-yil 21-fevraldagi “Xorazm viloyatida “Damas” rusumli yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 51-son qarorlarida keltirilgan maqsadlarga erishishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

¹ Manba: <https://president.uz/uz/lists/view/2752>

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarining eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish, bu borada tashqi bozorda mavjud talab va istaklarni obyektiv baholash, eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini amalga oshirish usullarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan keng ko'lamli tadqiqotlar xorijlik iqtisodchi olimlardan T. Saaty, L. Vang, P. Vells, F. Villiam, N. Paul, H. George, J. Marchand, J. Albertine, N. Xalipova, A. Bosov, A. Prokonyuk, N. Penshin, M. Kuznetsov tomonidan amalga oshirilgan. Tadqiqot jarayonida avtosanoat korxonalarining ichki va tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishda boshqaruv tizimining o'rni, sanoat korxonalarining strategik boshqaruv tizimining innovatsion rivojlanishini ta'minlashda iste'mol bozori talablarining ta'sirini imitatsion tahlil qilish orqali sanoat korxonalarining boshqaruv tizimini tashqi bozor talablariga muvofiqlashtirish yo'llari asoslab berilgan².

N. Xalipova, A. Bosov, A. Prokonyuk kabi iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda sanoat korxonalarining eksport salohiyatini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlash, integratsiyalashuv sharoitida sanoat korxonalarini eksport faoliyati boshqaruv tizimini tashqi bozor talablariga muvofiqlashtirishning institutsional asoslarini yaratish jarayonlari tizimlashtirilgan³.

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini shakllantirishning tarkibiy qismlari va funksional vazifalarini tashqi bozor talablariga muvofiqlashtirish, avtosanoat korxonalarining tashqi bozor faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq boshqaruv tizimi uyg'unligini ta'minlash, korxonaning tashkiliy tuzilmasini loyihalashtirish orqali avtosanoat korxonalarini boshqaruv tizimini iste'mol bozori talablariga muvofiqlashtirish uchun xizmat qiluvchi marketing – konsalting firmalari sonini oshirish imkoniyatlariga doir muammolar X.S. Asatullayev, B.O. Tursunov, A.A. Mamanazarov, N.K. Yo'ldoshev, G.E. Zaxidov, G.G'. Nazarova, N.M. Salixova, G.A. Muxamedjanova, I.A. Axmedov, R.S. Muratov, M. Sharifxo'jayev, Yo. Abdullayev, S.A. Salimov, Sh. Ergashxodjayeva, U. Sharifxo'jayev, M. Ikramov, L.T. Abduxalilova, N.M. Nabiyeva,

² Saaty T. Decision making with the Analytic Hierarchy Process. International Journal of Services Sciences. Available at: <https://www.researchgate.net/publication/228628807> Decision making with the Analytic Hierarchy Process [01.04.2016] Wang, L., Wells, P. (2020). Automobilities after SARS-CoV-2: A Socio-Technical Perspective. Sustainability 12(15), Art. No. 5978. Finan, William F. & Rappoport, Paul N (1982); "The international trade in automobiles: Explaining short-run changes in the import share of the United States market, 1979- 1981", Journal of Policy Modeling, Volume 4, Issue 1, Pages 99-109., Hoffer George; James Marchand; John Albertine; (1976), Pricing in the Automobile Industry: A Simple Econometric Model Southern Economic Journal, Vol. 43, No. 1. Jul., pp. 948-951, Khalipova N, Bosov A, Prokonyuk A. Development of a model for the integrated management of the international delivery chains formation. Eastern-European Journal of Enterprise Technologies ISSN 1729-3774. DOI:10.15587/1729-4061.2018.132683., Пеншин Н.В. Конкурентоспособность услуг автомобильного транспорта в условиях посткризисной модернизации экономики России. Монография.– Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2010. 156 с., Кузнецов М.И. Стратегическое управление и инновационная адаптация автомобильной отрасли национальной экономики России. Автореферат дисс. док. экон. наук.–М.: 2009. 50 с.

³ Khalipova N, Bosov A, Prokonyuk A. Development of a model for the integrated management of the international delivery chains formation. Eastern-European Journal of Enterprise Technologies ISSN 1729-3774. DOI:10.15587/1729-4061.2018.132683.

N.S. Abdullayeva, K.A. Sharipov, U.D. Zaynutdinova, X.P. Abulqosimov, T.A. Akramov, O.M. Umarovlar⁴ kabi iqtisodchi olimlar ilmiy izlanishlarida atroflicha tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, IL-4621061008–“Benchmarking asosida mahalliy avtomobilsozlik sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va samaradorligini aniqlashning dasturiy mahsulotini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi avtosanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun dissertatsiya ishida quyidagi vazifalar belgilangan:

korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasining mohiyati va uslubiy jihatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish jarayonida eksport faoliyatini boshqarish strategiyasining tizimli rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish;

korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirishning xorij tajribalarini tadqiq qilish orqali ulardan samarali foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqish;

“O'zavtosanoat” korxonalarini eksport faoliyatining rivojlanish jarayonlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi bozor omillarini baholash;

“O'zavtosanoat” korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasi va amal qilish mexanizmining korxonalar eksportiga ta'sirini asoslash;

“O'zavtosanoat” korxonalarini eksport faoliyatining boshqarish strategiyasini tashqi bozor talablariga muvofiqlashtirish tizimini tahlil qilish;

⁴ Asatullayev X.S, Tursunov B.O, Mamanazarov A.A. Korxonalarini rivojlantirish strategiyasi. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 524 b., N.K. Yo'ldoshev, G.E. Zaxidov. Menejment. Darslik. – T.: “O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2018. – 392-b., Nazarova G.G., Salixova N.M., Muxamedjanova G.A., Axmedov I.A. Xalqaro menejment. Prof. A.Sh. Bekmurodov tahriri ostida (darslik). – T.: TDIU, 2011-y. – 191-b., R.S. Muratov, Xalqaro menejment. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 428-b., M. Sharifxo'jayev, Yo. Abdullayev. Menejment. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 428-b., Салимов С.А. Основы маркетинга на автомобильном транспорте Узбекистана. Учебное пособие для бакалавров и магистров по специальности «Маркетинг». –Т.: ТАЙИ, 2006. – 170 с., Sh. Ergashxodjayeva, U. Sharifxo'jayev. Marketingni boshqarish. Darslik. – T.: TDIU, “Iqtisodiyot”, 2019. – 324-bet, M. Ikramov, L.T. Abduxalilova, N.M. Nabiyeva. Marketing tadqiqotlari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2017. – 145-b., Abdullayeva N.S. O'zbekistonda avtomobil sanoati: shakllanishi, rivojlanishi va istiqboli (XIX–XXI asrlar). Monografiya. –T.: “Muhammad poligraf”, 2018. – 128-b., K.A. Sharipov, U.D. Zaynutdinova. Avtosanoat korxonalarini marketing tizimini takomillashtirish. Monografiya. – T.: “Iqtisodiyot”, 2020. – 95-b., Abulqosimov X.P. Korxonaning xalqaro marketing faoliyati. Monografiya. – T.: “Akademiya”, 2002-y., – 114-b., T.A. Akramov. Avtomobil sanoati korxonalarida marketing strategiyalarini takomillashtirish. 08.00.11 – Marketing (iqtisodiyot fanlari). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: “Akademiya nashriyot markazi”, 2019-yil. – 80-bet. Umarov O.M. O'zbekistonda avtomobilsozlik sanoati rivojlanishi dinamikasi. “Iqtisodiyot va ta'lim”. 2017-yil 2-son. – 156–161-b.

globallashtirish sharoitida avtosanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirishga doir ilmiy xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida “UzAuto Motors” avtosanoat korxonasi ishlab chiqarish va eksport faoliyatini boshqarish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti avtosanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirishga yo‘naltirilgan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, taqqoslama tahlil, statistik guruhlash, tanlama kuzatish, monografik kuzatish, iqtisodiy tahlil, mantiqiy ketma-ketlik va vazifalar ustivorligi kabi usullardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “eksport faoliyatini boshqarish strategiyasi” tushunchasining mazmuni avtosanoat korxonalarida ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish va eksport salohiyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy tuzilma bo‘g‘inlarini boshqarish tamoyillari hamda vazifalarni hal etishni belgilab beruvchi keng ixtisoslashgan mustaqil strategiyani shakllantirish zaruriyati nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

“O‘zavtosanoat” AJ tarkibida avtosanoat korxonalarining “eksport faoliyatini strategik boshqarish” bo‘limini tashkil etish asosida avtosanoat korxonalarini eksport imkoniyatlarini baholash, tashqi bozorlarning qiyosiy samaradorligini tahlil qilish, samaradorligi past bo‘lgan bozor segmentlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash orqali tarmoq eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish asoslangan;

avtosanoat korxonalarining innovatsion mahsulotlarini siljitish kanallari algoritmi “UzAuto Motors” avtosanoat korxonasi ishlab chiqarish va eksport hajmi o‘rtasidagi integratsion aloqadorlikni ta‘minlash hamda risk sharoiti yuqori bo‘lgan xorijiy bozorlarni boshqarish trayektoriyasini korxonalarining geografik segmentida innovatsion mahsulotlarni taqsimlash mexanizmini shakllantirish orqali takomillashtirilgan;

“UzAuto Motors” aksiyadorlik jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish hajmining pessimistik, dinamik va optimistik ssenariylari bo‘yicha 2028-yilga qadar o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sanoat korxonalarining eksport faoliyatini boshqarish jarayonlarining ilmiy-amaliy asoslari tadqiq etilib, korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasiga nisbatan mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan;

avtosanoat korxonalarini eksportining geografik segmentiga yo‘naltirilgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali boshqarish strategiyasini takomillashtirish mexanizmi asoslangan;

avtosanoat korxonalarini tashqi bozorlar faoliyatini bilan bog‘liq boshqaruv qarorlariga doir axborot almashinuv tizimini optimallashtirish orqali yangi bozorlarda raqobat ustunligini ta‘minlash yo‘llari aniqlangan;

avtosanoat korxonalarining tashqi bozor segmentlarida diversifikatsiyalashgan ishlab chiqarishni tizimli yo‘naltirish, boshqaruv strategiyalarini vaznli baholash orqali boshqaruv xarajatlarini 10 foizga qisqartirish imkoniyati asoslangan;

avtosanoat korxonalarining haqiqiy va potensial eksport hajmini hisobga olib, eksport faoliyatini boshqarish strategiyasining diversifikatsiyalashgan modeli takomillashtirilgan;

avtosanoat korxonalarining yuqori risk sharoitiga ega bo‘lgan bozorlarda samarali savdo faoliyatini ta‘minlash, xorijiy bozorlarda savdo faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq hududiy bo‘limlar faoliyati o‘rtasidagi integratsion aloqadorlikni ta‘minlash orqali eksportning tuzilmaviy tarkibini o‘zgartirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, “UzAuto Motors” avtosanoat korxonasining amaliy ma‘lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda, avtosanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati doirasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar avtosanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini tahlil qilish jarayonida qo‘llaniladigan usullarni asoslash, tizimlashtirish, avtosanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini eksportning o‘shish sur‘atlariga ta‘sirini ishonchli aks ettirish va uzoq muddatli boshqarish strategiyasini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Avtosanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra, “eksport faoliyatini boshqarish strategiyasi” tushunchasining mazmuni avtosanoatning ishlab chiqarishni texnologik modernizatsiya qilish va eksport salohiyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy tuzilma bo‘g‘inlarini boshqarish tamoyillari hamda strategik muhim vazifalarni hal etishni belgilab beruvchi keng ixtisoslashgan strategiya nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan taklif oliy o‘quv yurti talabalarini uchun tavsiya etilgan “Ijro menejmenti” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlashda foydalanilgan (TDIU rektorining 2023-yil 26-iyundagi 211-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o‘quv yurti talabalarida korxonaning strategik boshqaruvidagi muhim vazifalarni hal etishni belgilab beruvchi nisbatan keng ixtisoslashgan strategiya sifatida foydalanish bo‘yicha nazariy bilim va ko‘nikmalarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

“O‘zavtosanoat” AJ tarkibida avtosanoat korxonalari “eksport faoliyatini strategik boshqarish” bo‘limini tashkil etish asosida avtosanoat korxonalari eksport imkoniyatlarini baholash, tashqi bozorlarning qiyosiy samaradorligini tahlil qilish, samaradorligi past bo‘lgan bozor segmentlariga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash orqali tarmoq eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish taklifi “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 22-maydagi 12/02-25-0718-son ma‘lumotnomasi). Natijada boshqaruv strategiyalarini vaznli baholash orqali boshqaruv xarajatlarini 10 foizga qisqartirish, tashqi bozor segmentlarida korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish orqali 2022-yilning yarmida 2021-yilning mos davriga nisbatan eksport hajmining yillik o‘shish sur‘atini 9,5 foiz oshirishga erishilgan;

avtosanoat korxonalarining innovatsion mahsulotlarini siljitish kanallari algoritmi “UzAuto Motors” avtosanoat korxonasining ishlab chiqarish va eksport hajmi o‘rtasidagi integratsion aloqadorlikni ta‘minlash hamda risk sharoiti yuqori bo‘lgan xorijiy bozorlarni boshqarish trayektoriyasini korxonalarining geografik segmentida innovatsion mahsulotlarni taqsimlash mexanizmini shakllantirish taklifi “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 22-maydagi 12/02-25-0718-son ma‘lumotnomasi). Natijada avtosanoat korxonasining ishlab chiqarish dasturiga muvofiq, tashqi bozorlarga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishda texnik va texnologik jihatdan tabaqalashgan tovarlar guruhini shakllantirish, xorijda ishlab chiqarish quvvatlarining potensial imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali eksport hajmini oshirish, avtosanoat korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning bozor segmentini to‘yinganlik darajasiga qarab tanlash hisobiga tranzaksion xarajatlarning yillik o‘shish sur‘atini 5 foizga qisqartirish hamda 2022-yilning birinchi yarmida 2021-yilning ushbu davriga nisbatan eksport hajmini qo‘shimcha 18,9 mln AQSh dollarga oshirish imkonini bergan;

“UzAuto Motors” aksiyadorlik jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish hajmining pessimistik, dinamik va optimistik ssenariylari bo‘yicha 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan o‘rta muddatli prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yil 22-maydagi 12/02-25-0718-son ma‘lumotnomasi). Natijada bozor segmentlarida mijozlarga yo‘naltirilgan innovatsion mahsulotlar uchun risk nazoratini ta‘minlash, boshqaruv subyektlari o‘rtasida boshqaruv munosabatlarini tashkil etish jarayonini optimallashtirish, turli risk sharoitiga ega bo‘lgan bozorlarda korxonaning samarali savdo faoliyatini ta‘minlash, xorijiy bozorlarda savdo faoliyatini amalga oshirish bilan bog‘liq hududiy bo‘limlar faoliyati o‘rtasidagi integratsion aloqadorlikni ta‘minlash va eksport qilinadigan tovarlarning tuzilmaviy tarkibini 15 foizga o‘zgartirish belgilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan. Umumiy hajmi 124 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan; tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan; respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan; ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati yoritib berilgan; tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobi “Sanoat korxonalarini eksport faoliyatini tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari” deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasining mohiyati va uslubiy asoslari, korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini asoslash mexanizmi, korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishning xorij tajribalari va undan samarali foydalanish imkoniyatlari tadqiq qilingan.

Sanoat korxonalarining eksport faoliyatini boshqarish jarayoni murakkab tuzilmaviy xarakterga ega bo‘lib, zamonaviy korxonalar tomonidan eksport bilan bog‘liq mustaqil strategiyani shakllantirishga ustuvorlik beriladi. Korxonalarining mustaqil eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini shakllantirish zaruriyati quyidagilar orqali namoyon bo‘ladi:

eksport faoliyatini amalga oshirish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar soni va xilma-xilligining sezilarli ta’siri natijasida tashqi muhit holati nazorat tartibidan chetda qoladi;

zamonaviy jahon iqtisodiyotida takomillashib borayotgan globalashuv jarayoni sanoat ishlab chiqarishdagi chuqur va tezkor o‘zgarishlar bilan bog‘liq ko‘p o‘lchovli raqobat muhitini vujudga keltiradi;

raqobat muhiti ta’sirida sanoat korxonalarining innovatsion va integratsion jarayonlarga ta’siri ortadi. Natijada sanoat korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyati strategik boshqaruviga nisbatan yangicha yondashuvlar talab qilinadi;

sanoat korxonalarini eksport faoliyatining tashqi muhit ta’sirida nazoratsiz qolishi korxonalarining tashqi bozor faoliyati kontekstiga sezilarli ta’sir o‘tkazadi.

Yuqorida qayd etilgan qator holatlar sanoat korxonalarining eksport faoliyatiga yo‘naltirilgan boshqarish strategiyasini shakllantirishda tashqi bozorlarda munosib raqobatbardosh mavqega ega bo‘lgan ilg‘or bilim, tajriba va vakolatlar, zarur resurslarning mavjudligi va biznes sheriklik aloqalarining o‘zaro konsentratsiyasini ta’minlashni talab etadi.

Fikrimizcha, korxonalar eksport faoliyatini strategik boshqaruv doirasida tashqi muhit talablariga javob beradigan yangiliklarni o‘z vaqtida amalga oshirish imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq. Shu sababli korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasi doirasidagi ilmiy asosga ega bo‘lgan fikr va mulohazalarni umumlashtirib, mavjud ta’riflarga tanqidiy yondashuvni amalga oshirgan holda, quyidagi mualliflik ta’rifi shakllantirildi: “Korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasi – bu korxonalar eksport faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavfni tavsiflash va ushbu tavakkalchilik holatining ehtimolligini baholash orqali

eksport faoliyati uchun maqbul variantni tanlash bo'yicha tegishli qaror qabul qilishda amaliy jarayonlarni o'zida ifoda etgan maqsad va vazifalar tizimidir".

Korxonalarining eksport faoliyatini strategik boshqarish jarayonida ma'lum bir maqsadga muvofiqlikni ta'minlash uchun boshqaruv jarayoni har bir bosqichining ijobiy va salbiy tomonlarini tizimlashtirish kerak. Turli jarayonlar ta'sirida shakllangan ijobiy va salbiy xususiyatlar korxonaning eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, eksport geografiyasini kengaytirishda eksport faoliyatini rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyatini beradi. Mazkur harakat algoritmi ta'sirida korxonaning eksport salohiyati kengayib boradi.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish sharoitida korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasi quyidagi vazifalar ijrosiga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq:

eksport faoliyatini rejalashtirish, rag'batlantirish, tashkil etish va nazorat qilish funksiyalari asosida tashqi bozor faoliyati bilan bog'liq boshqaruv qarorlarining ijro mexanizmi samarali amal qilinishini ta'minlash;

tashqi bozor faoliyati bilan bog'liq jarayonlarga situatsion munosabat bildirishga yo'naltirilgan vektorlar orqali murakkab o'zgaruvchan ahamiyatga ega xalqaro bozor muhitiga moslashish;

eksport faoliyatini boshqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli risk munosabatlarini hisobga olish;

korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini ishlab chiqishda har bir jarayonga (analitik jarayon, bashorat qilish jarayoni, muzokara jarayoni, jamoaviy jarayon, reaktiv jarayon, transformatsiya jarayon) nisbatan muvofiqlikni ta'minlash va boshqalar.

Korxonalarda eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini shakllantirish va uni amalga oshirishda eksport faoliyati samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq ichki omillar ta'siriga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ushbu omillarning salbiy ta'siri natijasida korxonaning eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini amalga oshirish jarayoni murakkablashadi. Shu sababli yangi bozorlar uchun korxonaning eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini tashkil qilishda ichki omillarning ta'siriga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Korxonaning eksport faoliyatini baholash orqali tashqi bozorda mavjud segmentni kengaytirish imkoniyatlarini ko'rib chiqish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish orqali jahon bozori konyunkturasining o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvchan tizim shakllantiriladi. Ushbu tizimni shakllantirishda eksportga yo'naltirilgan tovarlarning xalqaro raqobatbardoshlik darajasini rejalashtirish va istiqbolli bozor faoliyatini bashoratlash muhim ahamiyatga ega. Mazkur bosqichda eksportga yo'naltirilgan tovarlar uchun tashqi bozorlarning mikrosegmentatsion muvofiqligini ta'minlashga yo'naltirilgan xatti-harakatlar algoritmi quyidagilarga asoslanadi:

korxonalar eksport faoliyatining optimal boshqaruv mexanizmi samaradorligini ta'minlash maqsadida; innovatsion tovarlarning sifati, iste'mol xususiyatlaridan


kelib chiqqan holda, eksport salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan savdo texnologiyasini tashkil etish;

korxonalar eksport faoliyatining boshqaruv imkoniyatlariga muvofiq, maqsadli segmentni tanlash trayektoriyasini shakllantirish va boshqalar.

Korxonaning eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini mustahkamlashda yangi bozorlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakatlar rejasi doirasida ishlab chiqarish faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xarajatlar smetasi shakllantiriladi. Ushbu bosqichdan kutilayotgan natijadorlik korxonaning eksport faoliyatiga doir marketing rejasini shakllantirish va uni tahlil qilish jarayonlarini muvofiqlashtirishga asos yaratadi.

Korxonalar o'zining eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish maqsadida uni ishlab chiqarish va sotish muddatlarini qisqartirish, materiallar va butlovchi qismlar yetkazib beruvchilar o'rtasida raqobat muhitini yuzaga keltirishga harakat qiladi. Korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini shakllantirish jarayonida mavjud xarajatlarni optimallashtirishga yo'naltirilgan byudjet shakllantiriladi.

Shu bilan birga, tashqi bozor ustuvorligini ta'minlashga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish orqali resurslarni taqsimlash ro'yxati ishlab chiqiladi. Ushbu ro'yxat eksport strategiyasi boshqaruvini amalga oshirish jarayonida tashqi bozor ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi omil o'rtasida quyidagi bog'liqlikni ta'minlab beradi (1-rasm):



1-rasm. Korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasining jahon bozori konyunkturasiga moslashuvchan tizimi⁵

⁵ Tadqiqot natijalariga muvofiq, muallif tomonidan shakllantirilgan.

Korxonada eksport strategiyasini shakllantirishda korxonaning tashqi bozor faoliyatini rivojlantirishga asos yaratuvchi dizayn salohiyati muhim rol o'ynaydi. Ichki bozorda sotish uchun an'anaviy standart mahsulotlar ishlab chiqarish bilan birga sanoat korxonasi uchun tashqi bozor talablariga javob beradigan, ba'zi parametrlar bo'yicha tegishli o'zgartirishlarga asoslangan mahsulotlar guruhi shakllantiriladi.

Amaliyotda korxonada eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini amalga oshirishda quyidagi alternativ strategiyalardan foydalaniladi:

1. Innovatsion strategiya. Ushbu strategiya orqali tashqi bozorda iste'molchilarni yangi mahsulotlarga jalb qilish bilan bog'liq natijadorlik ta'minlanadi. Innovatsion mahsulotning tashqi ko'rinishi, funksional xususiyatlari, uning sifati va ishlab chiqarish usuli bilan bog'liq jarayonlar o'rtasidagi integratsion bog'liqlikni ta'minlash talab etiladi. Ammo bu sohada ko'plab muammo va risklar mavjud bo'lib, risk ta'siri muddatli ishlab chiqarish sikliga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ushbu sohada innovatsion jarayonlar faoliyati doimiy sarmoyalar talab etadi.

2. Diversifikatsiya strategiyasi. Mazkur strategiyani amalga oshirishda korxonada mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish uchun mavjud aloqalar va tajribalardan samarali foydalanish talab etiladi. Bu esa, o'z navbatida, korxonaning oldingi faoliyat sohasi bilan bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish jarayoni va bozorlar faoliyatini o'zlashtirishga ta'sir ko'rsatadi.

3. Xalqarolashtirish strategiyasi. Ushbu strategiya tashqi bozorlarni doimiy va tizimli o'rganish bilan bog'liq. Strategiyadan foydalanish integratsiyalashuv sharoitida raqobatning kuchayishi, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishga intilishi, xavfni kamaytirish va moliyaviy afzalliklarni oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

4. Globallashtirish strategiyasi. Mazkur strategiyaning maqsadi turli mamlakatlar bozorlari va maqsadli guruhlarining umumiy xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo'lib, bu orqali eksport faoliyati bilan bog'liq umumiy korxonada natijadorligini optimallashtirish mumkin.

5. Hamkorlik strategiyasi. Bu korxonaning tashqi bozor salohiyatidan maksimal darajada foydalanish maqsadida bozorda mustahkam o'z o'rnini egallash uchun o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini shakllantirishga yo'naltirilgan strategiya hisoblanadi. Ushbu strategiyani amalga oshirish jarayoni bozor sharoiti uchun yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar hamda savdo faoliyatini tashkil etuvchi ittifoqchilarni yaratishni talab etadi.

6. Texnologik strategiya. Texnologik sohada raqobatning muhim omillarini ta'minlash maqsadida amal qiladi. Korxonada muntazam ravishda o'zining bozor ehtiyojlaridan kelib chiqib, texnik salohiyatiga ustuvor yo'nalishlar belgilab boradi. Korxonaning texnologik taraqqiyoti ta'sirida biznes uchun eng istiqbolli bo'lgan bozorlar taqdim etish imkoniyati kengayadi.

Yaponiya kompaniyalari eksport faoliyatining strategik boshqaruvida kompaniya filiallari va sho'ba korxonalari bilan munosabatlar muhim rol o'ynaydi. Xususan, kompaniyalar faoliyatining xususiyatiga qarab rivojlanish maqsadlari

farqlanadi. Kompaniya filiallari va sho'ba korxonalari faoliyatining tashqi muhitga moslashuvchan tizimiga muvofiqlashtirish va shakllantirish uchun xizmat qiladi.


Umumiy maqsadlar sotish, foyda va tashqi bozor segmentlarida umumiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat. Yaponiya transmilliy korporatsiyalari global bozor ulushi nuqtayi nazaridan eksport faoliyatini rejalashtirishning miqdoriy ko'rsatkichlaridan strategik "reja"ga o'tishni tavsiflaydi: "pastdan yuqoriga" tartibidan "yuqoridan pastga" tizimi yoki boshqaruv darajalarining zanjirsimon bog'lanish tizimiga shakllanadi⁶.

Yaponiya kompaniyalarida xodimlar uchun "besh nol" deb nomlangan sifatni ta'minlash dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu dastur quyidagi qoidalar shaklida tuzilgan:

- nuqsonlarning paydo bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratmaslik;
- nuqsonli mahsulotlarni keyingi bosqichga o'tkazmaslik;
- oldingi bosqichdagi nuqsonli mahsulotlarni qabul qilmaslik;
- texnologik rejimlar o'zgarماسligi;
- xatolarni takrorlamaslik⁷.

AQSh avtosanoat korxonalarida savdo bozorlarini kengaytirish orqali potensial xatarlar kamaytirib boriladi. Mamlakatda mahalliy korxonalar o'rtasidagi texnologik almashinuv tizimi orqali qo'shma korxonalar faoliyati tashkil etiladi. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy aloqalarning turli shakllari AQSh korporatsiyalarida tegishli qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish, texnologik afzalliklarga asoslangan buyruq berish imkoniyatini kengaytiradi.

Korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirishning umumlashgan xorijiy tajribalari shaklini M. Porterning raqobat tahlili va Boston Consulting Groupning "bozor-mahsulot" modelidan foydalanish orqali quyidagicha tizimlashtirish maqsadga muvofiq (2-rasm):



2-rasm. Korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini muvofiqlashtirish tizimi⁸

⁶ Особенности системы стратегического управления в фирмах США, Японии и Финляндии [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://studfile.net/preview/5080225/page:52/>

⁷ Кане М.М., Иванов Б.В., Корешков В.Н., Схиртладзе А.Г. Системы, методы и инструменты менеджмента качества: учебное пособие. – СПб.: Питер, 2008. – 560 с.

⁸ Виханский О.С. Стратегическое управление: Учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Гардарики, 1998.

Ushbu tizimning muhim xususiyati shundaki, korxonaning ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini shakllantirishda maqbul yo‘nalishni tanlash imkoniyatini beradi. Tizimdagi funksional bog‘liqlik orqali korxonalar va tashqi bozor o‘rtasidagi integratsion aloqadorlik risk darajasi yuqori jarayonlarni chetlab o‘tishga sharoit yaratadi.

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston avtosanoat korxonalari eksport faoliyatini boshqarish holati tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida “O‘zavtosanoat” korxonalarining eksporti rivojlanishi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tahlil qilingan, avtosanoat korxonalari eksport faoliyatini boshqarish tizimi baholangan hamda “O‘zavtosanoat” korxonalari eksport faoliyatining boshqarish strategiyasini tashqi bozor talablariga moslashtirish yo‘llari asoslangan.

Tahlil natijalariga muvofiq, 2017-yilda Rossiya Federatsiyasiga jami 15 156 dona avtomobil eksport qilingan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich Qozog‘iston Respublikasida 5 247 dona, Ukrainada 2 960 dona, Ozarbayjonda 984 dona va boshqa davlatlarda 1 471 donani tashkil etadi. 2017-yilda jami eksport hisobida Rossiya Federatsiyasi 54,5 % va Qozog‘iston Respublikasi 19,5 % ulushga ega bo‘lgan. 2018-yilda “UzAuto Motors” kompaniyasi tomonidan eksport qilingan avtotransport vositalarining umumiy hajmi 4 625 donani tashkil etgan bo‘lib, Rossiya Federatsiyasiga jami 2 478 dona avtomobil eksport qilingan. Ushbu ko‘rsatkich avtosanoat umumiy eksportining 55,4 foizini tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

2017–2023-yillarda “UzAuto Motors” kompaniyasi tomonidan eksport qilingan avtotransport vositalarining umumiy hajmi (dona)⁹

Yillar	Rossiya	Qozog‘iston	Ukraina	Ozarbayjon	Boshqa MDH davlatlari	Boshqa chet davlatlar	JAMI
2017	15 156	5 247	2 960	984	1 028	1 471	26 846
2018	2 478	980	502	24	306	335	4 625
2019	1 481	10 076	496	581	237	249	13 120
2020	376	15 577	1 328	848	299	117	18 545
2021	456	33 033	928	276	172	45	34 910
2022	-	39 100	-	2 000	120	270	41 490
2023	-	38 025	-	2 075	272	132	40 504
JAMI	19 947	142 038	6 214	6 788	2 434	2 619	180 040


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 6-iyundagi “2017–2021-yillarda avtomobil sanoatini jadal rivojlantirish va boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–3028-son qarori avtosanoat korxonalarida mahsulotlarning yangi zamonaviy turlari va markalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalariga xorijiy investorlarni jalb etgan holda, amalga oshirish hisobiga tashqi va ichki bozorlarda raqobatdosh avtomobil mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish natijasida 2020-yilda “UzAuto

⁹ 2017–2023-yillarda “UzAutoMotors” kompaniyasi eksport faoliyati hisoboti.

Motors” kompaniyasi tomonidan eksport qilingan avtotransport vositalari soni 2019-yilga nisbatan qariyb 30 foizga oshgan.

2023-yilda “UzAuto Motors” kompaniyasi tomonidan eksport qilingan avtotransport vositalari umumiy hajmi 40 504 donani tashkil etgan. Eksportning asosiy hajmida Qozog‘iston 38 025 ming dona bilan yetakchilik qilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich jami avtomobil eksportining 94 foizini tashkil etadi. Ozarbayjonning avtomobil eksportidagi ulushi 5 foizga ega bo‘lib, jami 2 075 dona avtomobil eksport qilingan. MDH va boshqa chet el davlatlarining jami eksport hajmidagi ulushi 404 donani tashkil etib, avtomobil eksportining qariyb 1 foizini tashkil etgan.

Avtosanoat korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasi samaradorligi jahon bozorida korxonalarining kuchli raqobat muhitiga integratsiyasi orqali namoyon bo‘ladi. Raqobat muhiti darajasi bozor yetukligi bilan bog‘liq harakat siyosatini tanlashga ustuvorlik beradi (3-rasm).



3-rasm. “O‘zavtosanoat” AJ tarkibidagi korxonalar “eksport faoliyatini strategik boshqarish” bo‘limining tashkiliy asosi¹⁰

¹⁰ Tadqiqot natijalariga muvofiq, muallif tomonidan shakllantirilgan.

Raqobat muhitidan kelib chiqib, avtosanoat korxonalarining strategik alternativlarini shakllantirish jarayoni bozor segmentining strategik tahliliga asosan amalga oshiriladi. Raqobatdosh korxonalarining marketing strategiyasi tahlillariga muvofiq, avtosanoat korxonalarining strategik alternativlari soni o'zgartirilishi mumkin.

Xalqaro avtomobil bozorida yirik avtosanoat korxonalarining tashqi bozor strategiyasini boshqarish mexanizmi quyidagilarni ifodalaydi:


xalqaro darajada faoliyat olib borayotgan avtosanoat korxonalari kapitalni qo'shib olish yo'li bilan ishlab chiqarish konsentratsiyasini ta'minlash;

xorijiy mamlakatlarda kapitalni xorijga to'g'ridan-to'g'ri qo'yish hisobiga ishlab chiqarishni joylashtirishni kengaytirish;

outsorsing xizmatlaridan foydalanish orqali jahon ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlangan tarmog'ini shakllantirish;

globallashuv sharoitida rivojlanishning o'ziga xos jahon avtomobilsozlik sanoatidagi milliy avtosanoat korxonalari xususiyatlariga muvofiq rivojlanish modellarini shakllantirish va boshqalar.

“O'zavtosanoat” korxonalarining tashqi bozor faoliyatiga yo'naltirilgan diversifikatsiya strategiyasini boshqarish mexanizmining tuzilmaviy tarkibini quyidagicha izohlash mumkin (4-rasm):



4-rasm. “UzAuto Motors” avtosanoat korxonasi eksport faoliyatini boshqarishda “mijozlarga yo'naltirilgan risk nazoratini ta'minlash” modeli¹¹

¹¹ Tadqiqot natijalariga muvofiq, muallif tomonidan shakllantirilgan.

“O‘zavtosanoat” korxonasining tashqi bozor strategiyasini boshqarishning amal qilish mexanizmi tashqi bozorning jozibadorligiga asoslash bo‘yicha maqsadli missiyani shakllantirish uchun xizmat qiladi. Tashqi bozor faoliyatini boshqarishning mazkur elementi avtosanoat korxonasining tashqi bozordagi segmenti muhimligini (tanlangan iste‘molchilar guruhi, iste‘molchilar muhitiga avtosanoat mahsulotlariga nisbatan afzalliklari va mavjud ehtiyojlari barqarorligi) aniqlash imkoniyatini beradi.

Tadqiqot ishining uchinchi bobi “O‘zavtosanoat” korxonalarini eksportini boshqarishni takomillashtirish” deb nomlanib, unda “O‘zavtosanoat” korxonalarini eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish, globallashtirish sharoitida korxonalar eksport faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish yo‘llari bayon etilgan.

Avtosanoat korxonalarini eksportining boshqarish strategiyasini takomillashtirish, eksport bilan bog‘liq muayyan strategiyani tanlash yoki sanoat korxonasi strategiyasiga tegishli o‘zgartirish kiritish orqali tashqi bozor pozitsiyasini mustahkamlashga asos yaratadi. Avtosanoat korxonalarini doimiy ravishda tashqi bozor faoliyati bilan bog‘liq risk jarayonlariga duch kelganligi sababli ishlab chiqarish va sotish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish uchun doimiy harakatni ta‘minlashi zarur. Maqsadli tashqi bozor faoliyatini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan xatti-harakatlar algoritmi avtosanoat korxonasining tegishli bozorlarga kirishi bilan bog‘liq to‘siqlarni yuzaga keltiradi.

“O‘zavtosanoat” korxonalarining eksport boshqaruvi strategiyasini takomillashtirishning tashqi bozor talablariga moslashuvchan tizimini quyidagicha ifodalash mumkin (2-jadval):

2-jadval

“O‘zavtosanoat” korxonalarini eksport boshqarish strategiyasini takomillashtirishni tashqi bozor talablariga muvofiqlashtirish tizimi¹²

Maqsad	Avtosanoat korxonasi eksportining tovar tarkibini import qiluvchi mamlakat talablariga muvofiqlashtirish tizimini ishlab chiqish
Vazifa	Qisqa va uzoq muddatli davr uchun avtosanoat korxonasining strategik maqsadlarini tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga minimal xarajatlar hisobiga muvofiqlashtirish
Talab	Import qiluvchi davlatlar bilan bozorga kirish to‘siqlarining tizimli asosi bilan bog‘liq tegishli tartib-qoidalarini kelishish
Boshqaruv funksiyasi	Tashqi bozorga chiqishdagi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha harakatlar va resurslardan foydalanishni rejalashtirish; bozor to‘siqlari darajasi va ularni bartaraf etish jarayonlarini tizimli nazorat qilish
Amalga oshirish shakli	Maqsadli tashqi bozorga eksportni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirish

¹² Tadqiqot natijalariga muvofiq, muallif tomonidan shakllantirilgan.

“O‘zavtosanoat” korxonalari eksportini boshqarish strategiyasini takomillashtirish jarayoni tashqi bozorga chiqishdagi to‘siqlarni bartaraf etish va eksportni qo‘llab-quvvatlashning funksional strategiyasi majmuasiga asoslanadi.

Eksport strategiyasida belgilangan tegishli maqsadlar avtosanoat korxonalari eksportini boshqarish strategiyasini takomillashtirishda mavjud imkoniyat va ehtiyojlar darajasini muvofiqlashtirishga yordam beradi. Avtosanoat korxonalari eksportini amalga oshirishda tashqi bozorga chiqishdagi to‘siqlarni bartaraf etishning huquq va majburiyatlari nisbiy jihatdan taqsimlangan vositachilik xizmatlari vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.


